

BOSHLANG‘ICH TA’LIM YOSHIDAGI O‘QUVCHILARDA ILMIY VA IJODIY TAFAKKUR SHAKLLANISHINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sh.M. Istamova,

Osiyo Xalqaro Universiteti Pedagogika va psixologiya kafedrasи dotsenti

Haydarova Gulbahor

Osiyo Xalqaro Universiteti I bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ilmiy tafakkurni shakllantirishning o‘ziga xos jihatlari haqida fikr yuritiladi.

Аннотация: В статье рассматриваются особенности развития научного мышления у учащихся начального образования.

Abstract: This article discusses the specific aspects of developing scientific thinking in primary school students.

Kalit so ‘zlar: Ilmiy tafakkur, o‘zaro muloqot, diagramma, real tasvir, ijodiy tafakkur, interfaol metod

Ключевые слова: Научное мышление, взаимодействие, диаграмма, реалистичное изображение, творческое мышление, интерактивный метод.

Keywords: Scientific thinking, interaction, diagram, realistic image, creative thinking, interactive method

Kirish. Ilmiy tafakkur – bu vogelikni mantiqiy mushohada qilish, faktlarni tahlil qilish, ularni tizimlashtirish va umumlashtirish orqali muammolarni ilmiy asosda hal qilish qobiliyatidir. Bu tafakkur turining shakllanishi insonning hayotiy dunyoqarashiga, bilish faoliyatiga va ijodiy qobiliyatlariga bevosita ta’sir qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Maktabgacha va boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish masalasi rus va chet el pedagogika, psixologiya ilmida ham keng o‘rganilgan.

Pedagogika va psixologiyaga oid adabiyotlarda ilmiy tafakkurning shakllanishi J.Piagye, L.Vygotskiy, J.Bruner, D.Elkonin, V.Davidov, A.Zaporozhets, P.Galperin kabi olimlar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, ilmiy tafakkur bosqichma-bosqich shakllanadi va boshlang‘ich sinf yoshida uning poydevori qo‘yiladi.

J.Piagye¹ bolalar tafakkurini rivojlanish bosqichlari bo‘yicha o‘rganib, 6-10 yosh oralig‘ida bolalar konkret operatsiyalar bosqichida ekanligini aniqlagan. Ularning fikrashi hali abstrakt darajaga yetmaganligi sababli, ilmiy tafakkurni shakllantirish uchun real misollar, tajribalar, kuzatuvlar va muammoli vaziyatlar orqali o‘rganish eng samarali metod sanaladi.

L.Vygotskiy² bolalar psixologiyasi va ta’lim nazariyasiga katta hissa qo‘shgan. Olim ilmiy tafakkurning shakllanishida ijtimoiy omil hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi. Uning fikriga ko‘ra, bola kattalar va tengdoshlar bilan o‘zaro muloqot orqali ilmiy tafakkurini rivojlantiradi. Shu sababli, o‘quvchilar bilan faol muhokamalar olib borish, guruhli ishlarni

¹ Пиаже, Жан. Психология интеллекта. Перевод: А. М. Пятигорский. — СПб., 2003. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. — 20.10.2010.

² Л. Выготский. Мышление и речь. ГОСУДАРСТВЕННОЕ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ИЗДАТЕЛЬСТВО МОСКВА -ЛЕНИНГРАД, 1934

tashkil etish va ijodiy yozuv mashg‘ulotlarini yo‘lga qo‘yish tafakkurning shakllanishiga xizmat qiladi. Uning "Pedagogik psixologiya" asarida bolalarning kognitiv rivojlanishi va ilmiy tushunchalarni shakllantirish jarayonlari tahlil qilinib, bolalarning ilmiy dunyoqarashi ular yashayotgan va tarbiyalanayotgan ijtimoiy muhit bilan bog‘liq ravishda rivojlanadi.

V.Davidovning tadqiqotlari boshlang‘ich ta’limda nazariy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan. Uning "Bolalarda nazariy tafakkurning rivojlanishi" asarida o‘quvchilarining ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda nazariy bilimlarning ahamiyati ta’kidlangan.

D.Elkonin bolalar o‘yinlari va ularning psixologik rivojlanishiga oid tadqiqotlari bilan tanilgan. Uning "Bolalar psixologiyasi" asarida o‘yin faoliyatining bolalarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishdagi roli yoritilgan.

A.Zaporozhets bolalar psixologiyasi va ta’lim metodikasi bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. Uning "Bolalar tafakkurining rivojlanishi" asarida bolalarning ilmiy tafakkurini shakllantirish usullari tahlil qilingan.

P.Galperin o‘quvchilarining aqliy faoliyatini bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasini ishlab chiqqan. Uning "Aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish" asarida ilmiy tushunchalarni o‘zlashtirish jarayonlari yoritilgan.

Ushbu olimlarning asarlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish bo‘yicha muhim nazariy va amaliy tavsiyalarni beradi. Ularning tadqiqotlari ta’lim jarayonida o‘quvchilarining ilmiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan samarali metod va yondashuvlarni ishlab chiqishga asos bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbek pedagog olimlari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish masalasiga katta e‘tibor berib, bu jarayonda ijodiy insholarning ahamiyatini ta‘kidlaydilar. Ularning fikricha, ijodiy insholar o‘quvchilarining mustaqil fikrlashini rivojlantirish, ilmiy bilimlarni chuqurroq o‘zlashtirish va dunyoqarashini kengaytirishda muhim vosita hisoblanadi. Ilmiy dunyoqarash o‘quvchilarining atrof-muhitni to‘g‘ri tushunishi, hodisalar va jarayonlarni ilmiy asosda tahlil qila olish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu esa ularning kelajakdagi ta’lim va hayotiy faoliyatida muhim o‘rin tutadi.

Boshlang‘ich sinflarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o‘quvchilarining tafakkurini rivojlantirishga, yangi bilimlarni o‘zlashtirishga va fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirishga xizmat qiladi.

Ijodiy insholar yozish o‘quvchilarining fikrlash doirasini kengaytiradi, ularni mustaqil izlanishga undaydi va o‘z fikrlarini aniq ifodalashga o‘rgatadi. Bu jarayon ilmiy dunyoqarashning shakllanishiga ijobjiy ta ‘sir ko ‘rsatadi. Masalan, tabiiy va aniq fanlarni o ‘rganishda o‘quvchilarini ijodiy yozma ishlar orqali mavzuni chuqurroq anglashga yo ‘naltirish mumkin.

Nioxon Toshpulatova³ o‘z maqolasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni fanlararo takomillashtirishning ahamiyatini ko‘rsatgan holda, bunday yondashuv o‘quvchilarining ilmiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qilishini ta’kidlagan.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ta’lim-tarbiya berishda ilmiy dunyoqarash elementlarini shakllantirish va o‘quvchini shaxs sifatida muvaffaqiyatli kamol toptirish muhim jarayon hisoblanib, bo‘lajak komil inson tarbiyasida asosiy o‘rin tutadi. Bu jarayon o‘quvchilarining

³ Toshpulatova Nioxon Shavkatjon qizi. (2023). BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA ILMY DUNYOQARASHNI FANLARARO SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MATEMATIKADAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH. *Proceedings of International Educators Conference*, 2(1), 164–170.

Index: [google scholar](#), [research gate](#), [research bib](#), [zenodo](#), [open aire](#).

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

shaxsiy rivojlanishiga katta hissa qo'shamdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish jarayoni fanlar aro bog'liqlikda tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi, albatta. Bu usul o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtirishga yordam beradi.

Tabiiy fanlarni o'qitishda o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish fanlar aro bog'liqlik tamoyiliga amal qilgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish lozim. Shu yo'l bilan o'quvchilarning ilmiy bilimlarini mustahkamlashga erishiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun xos bo'lgan tafakkur xususiyatlarini quyidagicha ta'riflash mumkin:

1. Konkret fikrlash ustuvorligi. Bolalar tajriba va aniq faktlarga asoslangan holda fikrlashadi. Masalan, ular "havo og'irlikka ega" degan tushunchani oddiy izohlashda qiyinalishi mumkin, lekin agar ularga shishaga havo solib, og'irligini o'lchashni taklif qilsak, bu hodisani tezroq tushunishadi.

2. Tafakkurning vizuallikka bog'liqligi. O'quvchilar real tasvirlar, diagrammalar, eksperimentlar orqali tushunchalarni yaxshiroq o'zlashtiradilar. Masalan, "svuning holatlari" mavzusini tushuntirishda oddiy diagrammalar bilan tushuntirish o'rniga, ularning o'zları muzlatilgan svuni eritib, bug'holatiga o'tkazib kuzatishlari samaraliroq bo'ladi.

3. Sabab-oqibat bog'liqliklarini tushunishning qiyinligi. Bolalar biror hodisaning sababi va natijasini tushunishda qiyinchilikka duch kelishadi. Masalan, ular "yomg'ir, bulutlar bug'dan hosil bo'ladi" degan fikrni oddiy so'zlar bilan qabul qilishlari mumkin, lekin eksperiment orqali suv bug'lanishini ko'rsatish bu tushunchani mustahkamlashga yordam beradi.

4. Ijodiy tafakkurning rivojlanish bosqichi. 7-10 yosh oralig'ida bolalar tasavvur qilish va xayoliy fikrlash qobiliyatiga ega bo'ladilar. Ularning ilmiy tafakkurini rivojlanishiga uchun ijodiy yozuv mashg'ulotlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, ularga "Kelajakda odamlar qanday energiya manbalaridan foydalanadi?" mavzusida insho yozdirish ularning ilmiy dunyoqarashini boyitadi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ilmiy tafakkurni shakllantirish – bu izchil va muntazam davom etadigan jarayon bo'lib, vizual, amaliy, ijodiy va interfaol metodlar yordamida amalga oshirilishi lozim. O'quvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tajribalar, muammoli vaziyatlar, ijodiy insholar va guruhiy muhokamalar orqali ularning ilmiy dunyoqarashi shakllantiriladi. Bu esa ularda mustaqil fikrlash, tanqidiy yondashuv va ijodiy tafakkur rivojlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- Пиаже Ж. Психология интеллекта. Перевод: А. М. Пятигорский. — СПб., 2003. // Электронная публикация: Центр гуманитарных технологий. — 20.10.2010.
- Выготский Л. Мышление и речь. ГОСУДАРСТВЕННОЕ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ИЗДАТЕЛЬСТВО МОСКВА -ЛЕНИНГРАД, 1934
- Toshpulatova N. BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ILMIY DUNYOQARASHNI FANLARARO SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MATEMATIKADAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI TASHKIL ETISH. *Proceedings of International Educators Conference*, 2(1), (2023). 164–170.
- Maxsudovna, I. S., & Qizi, S. M. S. (2022). The role and importance of puzzles in the development of intellectual abilities of primary school students. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 12(2), 209-213.

Index: google scholar, research gate, research bib, zenodo, open aire.

https://scholar.google.com/scholar?hl=ru&as_sdt=0%2C5&q=wosjournals.com&btnG

<https://www.researchgate.net/search/publication?q=worldly%20knowledge>

<https://journalseeker.researchbib.com/view/issn/3060-4923>

5. Maxsudovna, I. S., & To'ymurodovna, Q. G. (2025). ONA TILI VA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH (KAHOOT, EDUCAPLAY KABI PLOTFORMALAR MISOLIDA). PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI, 2(2), 177-180.
6. Истамова, Ш. М. (2021). ХАЛҚ ОҒЗАКИ ИЖОДИ ВА ЁЗМА АДАБИЁТ НАМУНАЛАРИДА ТУШ МОТИВЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ҮЗИГА ХОСЛИГИ: Истамова Шохидা Максудовна, филология фанлари буйича фалсафа доктори. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (6), 16-19.4.
7. Jalilovna, Q. Z., & Maqsudovna, S. I. (2024). O 'QISH SAVODXONLIGI DARSLARIDA LUG 'AT USTIDA ISHLASH USULLARI. Methods of applying innovative and digital technologies in the educational system, 1(2), 184-186.
8. Jalilovna, Q. Z., & Maqsudovna, S. I. (2024). LUG'AT USTIDA ISHLASHNING LINGVISTIK ASOSLARI VA VAZIFALARI. PEDAGOG, 7(6), 186-189.
9. Maxsudovna, I. S., & To'ymurodovna, Q. G. (2024, February). BOSHLANG'ICH SINFLARDA DIDAKTIK VOSITALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI. In International conference on multidisciplinary science (Vol. 2, No. 2, pp. 59-64).
10. Makhsudovna, I. S. (2023). Dreams as a Means of Psychological Analysis.
11. Истамова, Ш. М. *Поэтико-композиционные функции сна в художественном произведении* (Doctoral dissertation, (PhD) по филологии: 10.00. 02/Истамова Шохиды Максудовна).
12. Истамова, Ш. М. СНОВИДЕНИЯ И СИМВОЛ В ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ. Сборник научных статей по итогам работы Международного научного форума, 72.
13. Истамова, Ш. М., & Шарипова, М. Б. (2024). ЛИТЕРОНОМИК ТАЖНИС САНЬЯТИ АЛИШЕР НАВОЙЙ ИЖОДИДА. Экономика и социум, (5-2 (120)), 1072-1075.
14. [Анъанавий туш рамзларининг поэтик матнда берилиши](#) ШМ Истамова - Новое слово в науке и практике: гипотезы и ..., 2017